

“TASDIQLANGAN”
“ANOR BANK” aksiyadorlik jamiyati

Aksiyadorlarining
2026-yil 25-fevraldagi
navbatdan tashqari umumiy
yig‘ilishi tomonidan
(1/2026-sonli Bayonnoma)

Kuzatuv Kengashi Raisi



Sh.N. Nosirov

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan

“RO‘YXATGA OLINGAN”

2026 yil “31” mart
№ 84

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisining birinchi o‘rinbosari



N. N. Saydullayev

“ANOR BANK”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
USTAVI
(Yangi tahriri)

I. UMUMIY QOIDALAR

1. «ANOR BANK» Aksiyadorlik jamiyati (keyinchalik «bank» deb yuritiladi) bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag'larini jalb etish, o'z nomidan kreditlar berish bo'yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi.

2. Bank ta'sischilarining 2020-yil 22-fevraldagi 1/2020-sonli bayonnomasiga asosan aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil qilingan. Bank ta'sischilari quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Olimov Qaxramonjon Anvarovich, ustav kapitalidagi ulushi 95,1%

Pasport № AB 5004936, Toshkent shahar IIBB tomonidan 09 sentyabr 2016-yilda berilgan, amal qilish muddati 08 sentyabr 2026-yilgacha, ro'yxatdan o'tgan manzili: Toshkent shahar, Olmazor tumani, Sebzor mavzesi Markaz 17/18, 4-uy, 141-xonadon

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Turakulov Davronbek Shuxrat o'g'li (Turakulov Davronbek Shuxrat o'g'li), ustav kapitalidagi ulushi 4,9%;

Pasport № AA6070864, Andijon viloyati Andijon shahar 1-MB tomonidan 08 iyul 2014-yilda berilgan, amal qilish muddati 07 iyul 2024-yilgacha, ro'yxatdan o'tgan manzili: Toshkent shahar, Mirzo-Ulugbek tumani, 162v-uy, 27-xonadon

3. Bank o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari va boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek mazkur Ustavga amal qiladi.

4. Bank O'zbekiston Respublikasining bank tizimi tarkibiga kiradi va mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini soddalashtiradigan va innovatsion bank texnologiyalaridan faol foydalanishga imkon beruvchi masofadan turib yuqori sifatli bank xizmatlarini taqdim etadigan bank hisoblanadi.

5. Bankni tashkil qilish va faoliyatidan maqsad - O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida foyda olish uchun amaldagi qonunchilik hujjatlarida ta'qiqlanmagan bank va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish, shuningdek ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish, bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, shu jumladan masofadan turib innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda.

6. Bankning to'liq nomi:

o'zbek tilida:

kirill yozuvida: «ANOR BANK» акциядорлик жамияти;

lotin yozuvida: «ANOR BANK» aksiyadorlik jamiyati;

rus tilida: Акционерное общество «ANOR BANK»;

ingliz tilida: Joint-stock company «ANOR BANK».

Bankning qisqartirilgan nomi:

o'zbek tilida:

kirill yozuvida: «ANOR BANK» АЖ;

lotin yozuvida: «ANOR BANK» AJ;

rus tilida: АО «ANOR BANK»;

ingliz tilida: JSC «ANOR BANK».

7. Bank yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

8. Bank belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida bank xizmatlari markazlarini tashkil qilishga haqli, qonun xujjatlarida ko'zda tutilgan va ushbu Ustavda belgilangan qoidalar doirasida ularga huquqlar berishi mumkin.

Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (keyinchalik "Markaziy bank" deb yuritiladi) ruxsati bilan chet elda sho'ba banklar ochishi va filiallar tashkil etishi, banklarning kapitalida ishtirok etishi, shu jumladan chet el banklarini tashkil etishda ishtirok etishi mumkin.

Bankning sho'ba banklari hamda vakolatxonalar ular ochiladigan va (yoki) tashkil etiladigan mamlakat qonunchilik hujjatlariga muvofiq ochiladi va (yoki) filiallari tashkil etiladi.

Bankning markazga, filialga va vakolatxonaga berib qo'yilgan mol-mulki bankning balansida hisobga olinadi.

9. Bank mablag'larining saqlanishi hamda omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun, shu jumladan to'lovlar bir bankdan boshqa bankka o'z vaqtida o'tishi hamda mablag'larning korxonalar va tashkilotlar hisob-kitob varaqlariga kiritilishi uchun o'z mijozlari va omonatchilari oldida javobgardir.

Aksiyadorlar bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarining o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

Aksiyalar haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar bank majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Bank o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Bank davlatning majburiyatlari bo'yicha, davlat esa bankning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, bundan bankning yoki davlatning o'zi bunday majburiyatlarni zimmasiga olish hollari mustasno.

10. Bank cheklanmagan muddatga ta'sis etilgan.

11. Bank o'z timsoliga, O'zbekiston Respublikasining davlat tilidagi to'liq firma nomi va timsoli tasviri tushirilgan dumaloq muxriga ega.

Bankning yuridik va pochta manzillari: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy.

Web-sayt: www.anorbank.uz.

II. BANK OPERATSIYALARI

12. Bank o'z faoliyatida quyidagi moliyaviy operatsiyalarini amalga oshiradi:
- pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;
 - to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
 - jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;
 - kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;
 - chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
 - jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha pul mablag'larini va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish;
 - inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;
 - uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;
 - pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) shartnomasiga asosan talab qilish huquqini olish yoki boshqa shaxsga berish;
 - qimmatli qog'ozlarni chiqarish, harid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni

saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

affillangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;

aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;

bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha xizmatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan elektron axborot almashish orqali ko'rsatish.

Bank banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

Bank bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko'rsatilmagan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga haqli emas.

13. Bank O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan bank faoliyatini oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiradi.

14. Bank aholi, korxonalar, tashkilotlar, kredit va moliya institutlari, shu jumladan norezidentlarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi va ularni talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlarida, omonat, muddatli depozit hisobvaraqlarida, shuningdek boshqa 16turdagi depozit hisobvaraqlari va majburiyat hisobvaraqlarida saqlaydi.

15. Bank korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga kreditning muddatlilik, qaytarishlik, ta'minlanganlik, maqsadlilik va foizlilik prinsiplari asosida milliy valyuta - so'mda yoki chet el valyutasida kreditlashni amalga oshiradi.

Bank tomonidan beriladigan kreditlar, qoida tariqasida, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq undirish mumkin bo'lgan mol-mulk garovi, shuningdek kafolatlar, kafilliklar, bank tajribasida qabul qilingan boshqa shakllardagi majburiyatlar bilan ta'minlanadi. Bank bu kafolatlar, kafilliklar, majburiyatlarning yetarliligini o'z kredit siyosati hamda Markaziy bank qoida va tavsiyalarini hisobga olgan holda belgilaydi.

16. Bank O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

III. BANK UCHUN TA'QIQLANGAN YOKI CHEKLANGAN FAOLIYAT

17. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas.

18. Ushbu Ustavning 17-bandida ko'rsatilgan cheklov quyidagi hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimlarida foydalaniladigan ixtisoslashtirilgan uskunani va unga doir dasturiy ta'minotni sotish yoki ijaraga berishga;

o'z aktivlarini sotishga;

chek daftarchalarini chiqarish, realizatsiya qilish va tarqatishga;

sug'urta tashkilotlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari nomidan sug'urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga;

bank o'zi muassis bo'lgan yuridik shaxslarga o'z mol-mulkini mulkiy ijara (arenda) shartnomasiga muvofiq ijaraga berishga.

19. Bankga yuridik shaxslarni tashkil etish va (yoki) yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlarni yoki aksiyalarni olish taqiqlanadi, bundan quyidagilar mustasno: kredit, sug'urta va lizing operatsiyalarini professional asosda amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

moliya bozori infratuzilmasining bir qismi bo'lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

bankning kafolati ostida qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish maqsadida mazkur bankning xorijda tashkil etiladigan sho'ba tashkilotlari;

faqat inkassatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar;

bank operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar, shu jumladan bank kartalari bilan operatsiyalarga doir hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtasida o'zaro bog'liqligini ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

fond va valyuta birjalari;

kredit byurolari;

qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozoriga joylashtirilgan aksiyalarning yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda fond birjasi listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlari.

20. Bankka ushbu bank ustav kapitalining bir yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi yuridik shaxsning ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etish taqiqlanadi.

21. Ushbu bandning talablari bank tomonidan boshqa bankning aksiyalarini yoki o'zga bank saqlovchisi bo'lgan boshqa qimmatli qog'ozlarni yoxud o'zga bankka tegishli yuridik shaxslar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni yoki aksiyalarni ular tomonidan qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish amalga oshirilayotganda olish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

IV. BANK USTAV KAPITALI

22. Bankning ustav kapitali aksiyadorlar sotib olgan bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topib, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi va o'z kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan bank mol-mulkining eng kam miqdorini belgilaydi.

23. Bankning ustav kapitali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda bank muassislari va aksiyadorlari kiritgan pul mablag'laridan yoki davlatning qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi, bundan quyidagi hollar mustasno:

bank aksiyalarini bankning kreditorlari orasida joylashtirish va bankning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari bo'yicha har qanday huquqlarini (talablarini) hisobga olish yo'li bilan ularning haqini to'lash;

qimmatli qog'ozlarni bank aksiyalariga ayirboshlash;

bankning joylashtirilgan bir turdagi aksiyalarini ushbu bankning boshqa turdagi aksiyalariga almashtirish.

Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan, shuningdek majburiyat yuklatilgan boshqa mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

24. Bank oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Bankning barcha aksiyalari egasi yozilgan, emission qimmatli qog'ozlardir.

Bankning barcha turdagi aksiyalari 1 000 (bir ming) so'mni tashkil etadigan nominal qiymatga ega.

Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati bank ustav kapitalining yigirma besh foizidan oshmasligi kerak.

25. Bank ustav kapitali 800 000 000 000 (sakkiz yuz milliard) so'mni tashkil etadi va quyidagi aksiyalarga taqsimlanadi:

- egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar – nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan

600 000 000 (olti yuz million) dona miqdorda.

- egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar – nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 200 000 000 (ikki yuz million) dona miqdorda.

Bank tomonidan ustav kapitalini ko'paytirish maqsadida bank chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari summasi 1 200 000 000 000 (bir trillion ikki yuz milliard) so'mni tashkil etadi, shu jumladan:

- nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 900 000 000 (to'qqiz yuz million) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar.

- nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 300 000 000 (uch yuz million) dona imtiyozli aksiyalar.

26. Bankning ustav kapitali miqdorini oshirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Ustavda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

27. Mazkur Ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi (mazkur Ustavda nazarda tutilgan qonun hujjatlari va hollar bundan mustasno), shuningdek, bank tomonidan chiqarilgan aksiyalarning maksimal miqdorini belgilash to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan bank ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina bank tomonidan joylashtirilishi mumkin.

Bankning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalar yoki imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari, shuningdek qonun hujjatlariga asosan joylashtirilgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlar uchun qo'shimcha aksiyalarning joylashtirish narxi belgilangan bo'lishi kerak.

Bank ustav kapitalini e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdori chegarasigacha ko'paytirish, shuningdek, ustav kapitalini bunday ko'paytirish va bankning e'lon qilingan aksiyalari miqdorini kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan bankning mazkur Ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi Kuzatuv kengashining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Bankning korporativ obligatsiyalari bank aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin. Bankning imtiyozli aksiyalarning bank oddiy aksiyalariga ayirboshlanishi mumkin.

Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi.

28. Bank tomonidan aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar joylashtirilsa, bankning ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lmish aksiyadorlar bunday qimmatli qog'ozlarni imtiyozli sotib olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli sotib olish huquqiga ega.

Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida qayd etiladi. Bunda e'lon qilingan muayyan toifa va turdagi aksiyalarning miqdori joylashtirilgan ana shu toifa va turlardagi aksiyalarning soniga qisqartiriladi.

Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish qonunchilikda belgilangan tartibda, jalb qilingan investitsiyalar, bankning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Bank ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bank ustav kapitali ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, bank ustav kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

29. Agar qonun hujjatlarida boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, bankning ustav

kapitalini aksiyalar nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

30. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda bank tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Ustav kapitalini kamaytirish hamda bank Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

31. Bank o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo'li bilan qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o'tkazishga yoki ularni xususiy joylashtirish yo'li bilan yopiq obuna o'tkazishga haqli.

Joylashtirilayotgan aksiyalarning soni aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan miqdordan ko'p bo'lmasligi lozim.

Bank tomonidan qo'shimcha aksiyalarini va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmasligi kerak.

Bank tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: ochiq yoki yopiq obuna yo'li bilan. Joylashtirish usuli (ochiq yoki yopiq) har bir alohida joylashtirishda bank Kuzatuv Kengashi qarori bilan belgilanadi.

V. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

32. Bank moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda mustaqildir.

33. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- omonatlar va beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilash;
- shartnoma asosida depozit va kreditlar shaklida boshqa banklarning mablag'larini jalb qilish hamda mablag'larni boshqa banklarda joylashtirish;
- tashkil etiladigan hisob-kitob markazi va vakillik hisob varaqlari orqali hisob- kitoblarni amalga oshirish;

- bank operatsiyalari bo'yicha vositachilik to'lovlari miqdorini mustaqil belgilash;

- litsenziyada va bank Ustavida ko'zda tutilgan, o'z moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa xatti-harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirish.

34. Bank quyidagilarga majbur:

bankning ustav kapitalidagi ulushlarga bevosita va bilvosita egalik qiluvchilarning, shu jumladan ohirgi benefitsiar mulkdorning shaxsi va ulushining miqdori to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni Markaziy bankning so'rovnomasiga binoan taqdim etish;

moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida hisoblab chiqarish tartibi va yo'l qo'yiladigan qiymatlari Markaziy bank tomonidan belgilanadigan prudensial normativlarga rioya etish;

aktivlar bo'yicha yo'qotishlarga oid tavakkalchilikni kamaytirish maqsadida o'zining kapitalini va likvid resurslarini yetarli darajada saqlab turish, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni aktivlarni tasniflash asosida shakllantirish, shuningdek o'z aktivlarining diversifikatsiya qilinishini ta'minlash;

Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy zahiralash talablarini bajarish;

Markaziy bank tomonidan belgilangan ichki nazoratga hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablarga rioya etish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish;

bank barcha soliq va majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin tasarrufida qoladigan sof foyda

hisobidan zahiralari va fondlarni tashkil qiladi. Jumladan, qonunchilikda belgilangan tartibda bank zahira kapitali tarkibida "standart" deb tasniflangan aktivlar uchun, tasniflangan aktivlar bo'yicha asosiy qarzdorlik qoplanmagan qismining 1 foizi miqdorida zahira fondi tashkil qilinadi;

Markaziy bank topshirig'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining kassa ijrosi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish;

beriladigan kreditlarni, garov (shu jumladan mol-mulk shaklidagi), kafolatlar, kafilliklar va majburiyatlarning yetarililigini hisobga olgan holda ta'minlanishining ichki tartibini belgilash;

bankda ichki audit xizmati mavjud bo'lishini ta'minlash;

o'z mijoz va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda omonatlari bo'yicha maxfiylikni ta'minlash;

"tenglik" tamoyiliga rioya qilish, ya'ni barcha aksiyadorlar bilan, ularning ulushi miqdori, daromadi, darajasi, jinsi, kelib chiqishi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va jamiyatdagi mavqeidan qat'iy nazar bir xil munosabatda bo'lish;

o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni Markaziy bank belgilagan tartibda oshkor etish.

35. Markaziy bank predmeti yoki mazmuni quyidagilardan iborat bo'lgan har qanday tuzilgan kelishuv to'g'risida xabardor etilishi kerak:

bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlarida yoki bank ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shaxslarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish huquqini kelishilgan holda amalga oshirish;

bank boshqaruvi organi a'zolarining yoki bank ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shaxslarning kelishilgan holda faoliyat ko'rsatishi;

bank boshqaruvi yoki kuzatuv kengashi a'zolarining nomzodlarning yoxud bank ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shaxslarning ko'pchiligi nomzodini ko'rsatish huquqini amalga oshirish.

36. Bank o'z mijozi va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda omonatlari bo'yicha sirini kafolatlaydi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar mijozning (vakilning) o'ziga, mijoz tomonidan vakolat berilgan vakilga va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa shaxslarga beriladi.

VI. BANK AKSIYADORLARI

37. Yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining norezidentlari xam, bank aksiyadorlari bo'lishi mumkin.

Norezident bo'lgan jismoniy shaxslarning va xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarning jami ulushi bank ustav kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

Qaysi norezidentlarning ishtirokchilari (aksiyadorlari) hamda oxirgi benefitsiar mulkdorlari imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor etishni hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish chog'ida axborot taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatda yoki hududda ro'yxatga olingan bo'lsa, o'sha norezidentlar bank muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin emas.

Aksiyadorlar quyidagi huquqlarga ega:

bankning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;

depozitariyadagi depo hisob varag'idan o'ziga ta'luqli qismidan ko'chirma olish;

bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

bank tugatilgan taqdirda o'ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali bankni boshqarishda ishtirok etish;

belgilangan tartibda bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bankdan unga tegishli bo'lgan aksiyalarning

hammasi yoki bir qismini sotib olishini talab qilish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

o'ziga yetkazilgan zararining o'zini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o'z manfaatlarini ifodalash va ximoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

bank aksiyalarini olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda bilan bog'liq tavakkalchilikni sug'urta qilish;

yig'ilish kun tartibidagi masalalar yuzasidan ovoz berishda aksiyadorlarning qo'shma pozitsiyasini yaratish maqsadida aksiyadorlar kelishuvini tashkil qilish;

aksiyadorlar va investorlar uchun bank siri va maxfiy ma'lumotlardan tashqari boshqa ma'lumotlarni talab qilib olish.

Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga xam ega bo'ladi.

Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

Aksiyadorlar, bir foizdan kam bo'lgan oddiy aksiya egalari, bank Kengashi yig'ilishini chaqirishni talab qilish, kun tartibiga takliflar kiritish, foydani taqsimlash, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishigacha boshqaruv va nazorat organlari a'zolariga lavozimlarni o'zgartirish huquqiga egadirlar.

Imtiyozli aksiya o'z egalari uchun Ustavda belgilangan dividendlarni, shuningdek bank tugatilayotganda aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalardir. Imtiyozli aksiyalar o'z egalari uchun bank foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat'i nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar, agar qonun hujjatlarida va ushbu Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida bankni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida bank ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar, shu jumladan, avvalgi navbatdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatish qiymatini to'lash navbati bo'yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

38. Aksiyador quyidagilarga majbur:

o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi depozitariyni o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;

bank aksiyalarini sotib olishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etish;

bank sirini va maxfiy ma'lumotlarni tashkil etuvchi axborotni oshkor etmaslik;

hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan aksiyadorlar o'ziga tegishli aksiyalarni bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruhsatnoma chaqirib olingan kundan e'tiboran uch oy ichida sotishi kerak;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Ustavda ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

Bank aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha mazkur bank aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining 50 foizidan kamrog'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalari uchun aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari borasidagi taklifini o'ttiz kun ichida e'lon qilishi shart. Aksiyadorning o'ziga tegishli aksiyalarni

sotishi to'g'risidagi yozma roziligi e'lon qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida olingan taqdirda, jamiyatning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olishi shart.

VII. BANK AKSIYALARIGA EGALIK QILISHGA DOIR RUXSATNOMA VA CHEKLOV

39. Jismoniy va yuridik shaxslar yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar, shu jumladan norezidentlar bir yoki bir necha bitim natijasida bankning ustav kapitalidagi:

besh va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan yigirma foizni;

yigirma va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan ellik foizni;

ellik va undan ko'proq foizni tashkil etadigan ulushni bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

40. Ushbu Ustavning 39-bandida belgilangan bank ustav kapitalidagi ulushlar Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olgan shaxslar tomonidan o'zgartirilgan taqdirda, qonunchilikda o'rnatilgan tartibda xabardor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

41. Bank boshqa bankning aksiyalarini bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Bank boshqa bankning ustav kapitalidagi ulushini ko'paytirish uchun Markaziy bankning takroriy dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

42. Imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor etishni hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazishda axborot taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatda va hududda yashaydigan norezident bo'lgan jismoniy shaxslar hamda shunday davlatda ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, aksiyadorlar (ishtirokchilar), oxirgi benefitsiar mulkdorlar bank aksiyalarining bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchilari bo'lishi mumkin emas.

43. Agar bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish talab etilsa, bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun berilgan ariza Markaziy bank tomonidan monopoliyaga qarshi organning qarorini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi.

44. Bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomasiz tuzilgan bank aksiyalarini olishga oid bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

45. Bank aksiyalari qonunchilikda belgilangan tartib buzilgan holda olingan taqdirda, aksiyalarning egasi bunday bitim tuzilgan kundan e'tiboran aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berishga, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni va o'tkazishni talab qilishga, kun tartibiga masalalar kiritishga, bank kuzatuv kengashi va boshqaruvi a'zoliciga nomzodlar ko'rsatishga, shuningdek bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga haqli emas.

46. Shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda bankning aksiyalarini 39-bandda ko'rsatilgan hajmda olganda Markaziy bank ruxsatnomasini olish talab qilinadi. Shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda bankning aksiyalarini olgan kundan e'tiboran Markaziy bank tomonidan tegishli qaror qabul qilinadigan kunga qadar aksiyalar egasining huquqlari to'xtatib turiladi.

47. Aksiyador o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda bank aksiyalarini olgan kundan e'tiboran oltmish kun ichida Markaziy bankning ruxsatnomasini olish uchun ariza taqdim etishi kerak. Aksiyador tomonidan ariza taqdim etilmagan taqdirda, o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda olingan bank aksiyalari olingan kundan e'tiboran uch oy ichida boshqa shaxsga berilishi lozim.

VIII. BANKNING FOYDASI, FONDLARI, ZARARLARI. DIVIDENDLAR.

48. Dividend bank sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

Dividend Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud bankning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni bankning qimmatli qog'ozlari bilan

to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

49. Bank moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

Moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror tegishli davr tugaganidan so'ng uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror bank Kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik hulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori bank Kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

50. Bank aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Dividendlar bank tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim.

Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi.

Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlar quyidagi miqdorda to'lanadi:

- hisoblangan dividendlar aksiyalarning nominal qiymatidan 25 (yigirma besh) foizni tashkil qiladi.

Bank O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag'iga o'tkazib berishi shart.

51. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

Bank aksiyadorlarining reyestri, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 3 ish kuni oldin shakllantiriladi.

52. Bank dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Bank to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va bankning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

Dividendlarni to'lash Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi yoki investitsiya vositachilari orqali aksiyadorning mavjud bank hisobvarag'iga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bunda aksiyadorlik jamiyati aksiyadordan dividendlarni to'lash to'g'risidagi arizani talab qilishga haqli emas.

53. Bank aksiyadorlarga dividendlar to'lash, shuningdek bankning Kuzatuv kengashi, boshqaruvi a'zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlashni quyidagi hollarda amalga oshirishga haqli emas:

prudensial normativlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganda yoki ular mazkur taqsimlash oqibatida buzilganda;

nochorlik (bankrotlik) bo'lganda yoki mazkur taqsimlash oqibatida nochorlikning (bankrotlikning) alomatlari yuzaga kelganda;

Markaziy bankning ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmasida aks ettirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish borasida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmaganda;

Markaziy bankning foydani taqsimlamaslik to'g'risida bankka nisbatan talabi mavjud

bo'lganda.

54. Bank quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi kerak:

ushbu Ustavning 53-bandining birinchi xatboshisida ko'rsatilgan to'lovlarning umumiy summasi bankning o'z kapitalining o'n foizidan ortganda;

joriy yoki o'tgan chorakda va (yoki) moliya yilida zarar mavjud bo'lganda.

55. Bank fondlari bank Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq shakllantiriladi va bankning to'liq tassarufida bo'ladi.

56. Bankning zaxira fondi bank ustav kapitalining 15 foizi miqdorini tashkil etadi. Bankning zaxira fondi ushbu Ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar bank sof foydasining besh foizi miqdorida har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi.

57. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda bankning zaxira fondi bank zararlari o'rnini qoplash, bank korporativ obligatsiyalarini muomaladan chikarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar va bank aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

58. Bankning zararlari zaxira fondi hisobidan qoplanadi. Zararlarni qoplash uchun zaxira fondining mablag'lari yetishmagan taqdirda, zararni qoplash manbalari to'g'risida qaror bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

59. Bankning sof foydasi ushbu Ustavga va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlariga muvofiq taqsimlanadi.

IX. BANKNI BOSHQARISH

60. Quyidagilar bankning boshqaruv organlari hisoblanadi:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;

Kuzatuv kengashi;

Boshqaruv.

61. Kuzatuv kengashi va Boshqaruv bank Ustavi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida berilgan vakolatlar doirasida bank faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Bank faoliyatini samarali tashkil etish va xorijiy investorlarni ustav kapitaliga jalb qilish, boshqaruv organlari va mehnat jamoasi o'rtasida o'zaro aloqalar tizimini yaratish Korporativ boshqaruv kodeksiga va bankning boshqa ichki qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

62. Bank Kuzatuv kengashining va Boshqaruvining a'zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak, banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga doimo muvofiq bo'lishini ta'minlashi shart.

63. Bank Boshqaruvi a'zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlari ish beruvchining roziligi bilan boshqa tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlashi mumkin, bundan ularning boshqa banklar va tashkilotlarda ishga joylashuvi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

64. Bank Kuzatuv kengashining va Boshqaruvining a'zolarini, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlar lavozimlariga ko'rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavoziga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib oladi. Baholash shartlari, baholash uchun zarur hujjatlar, malaka talablariga muvofiqlik mezonlari, shuningdek ularni kelishib olish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

65. Bank korporativ boshqaruvga oid siyosatni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi

66. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bankning yuqori boshqaruv organidir.

67. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

67.1. bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash, Kuzatuv kengashining qaroriga asosan amalga oshiriladigan ustav kapitalini ko'paytirish va e'lon qilingan aksiyalar sonining kamayishi bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bundan mustasno;

67.2. bankni qayta tashkil etish;

67.3. bankni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

67.4. Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

67.5. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasini tuzish va son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

67.6. e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

67.7. bank ustav kapitalini kamaytirish;

67.8. qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va hollarda, Markaziy bank bilan kelishuvga asosan, o'z aksiyalarini sotib olish;

67.9. bank tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

67.10. majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash hamda u bilan shartnoma tuzish yoki shartnomani bekor qilish tug'risidagi qarorni qabul qilish;

67.11. Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlangan bank Boshqaruvi raisini tasdiqlash;

67.12. bank Taftishchisini saylash va uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

67.13. Aksiyadorlarning umumiy yigilishi, Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi, Kuzatuv kengashi, bank Boshqaruvi va bank Taftishchisi, shuningdek, Kuzatuv Kengashi a'zolariga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomlarni, bank korporativ boshqaruvi Kodeksini tasdiqlash, shuningdek ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;

67.14. bankning yillik hisobotini, shuningdek bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda bankni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

67.15. bankning foyda va zararlarini taqsimlash;

67.16. o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan bankni boshqarishga doir qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashining hisobotlarini va bank Taftishchisining hulosalarini eshitish;

67.17. qimmatli qog'ozlarning xosilarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

67.18. aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni sotib olishda, O'zbekiston qonunchiligida belgilangan aksiyadorning imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risidagi qaror qabul qilish;

67.19. qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda bank bilan aloqador bo'lgan (affillangan) shaxslar bilan bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

67.20. aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;

67.21. aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

67.22. balans qiymati yoki sotib olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mulkni sotish yoki sotib olish xususida yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

67.23. Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvning bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini va boshqa hujjatlarni ko'rib chiqish;

67.24. hayr-exson, homiylik va beg'araz yordam miqdorining chegarasini belgilash;

67.25. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu Ustavda va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizomda nazarda tutilgan boshqa masalalarni xal etish.

68. Ushbu Ustavning 67-bandi 67.1, 67.2, 67.3, 67.4, 67.5, 67.6, 67.17, 67.19, 67.22, 67.24 kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning

egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

69. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

70. Bank har yili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi har yili 30-iyun kuni o'tkaziladi.

Zarur hollarda bank Kuzatuv kengashi aksiyadorlarni amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda oldindan xabardor qilgan holda, Ustavning ushbu bandida ko'rsatilgan muddatdan oldin Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini chaqirishga xaqli.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish chog'ida umumiy yig'ilishda, kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishi mumkin.

71. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasidan uch ish kuni oldin shakllantiriladigan bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

72. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotlar yagona portalida, bankning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

73. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) bankning yillik hisoboti, bankning yillik moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik tashkilotining hulosasi, Kuzatuv kengashining bank Boshqaruvi raisi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risidagi hulosasi, shuningdek Kuzatuv kengashi xamda Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zoliciga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, bank Ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyixasi yoki bankning yangi tahrirdagi Ustavi loyixasi kiradi.

74. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador):

bankning moliyaviy yili tugaganidan keyin to'qson kundan kechiktirmay, Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga xamda Kuzatuv kengashining miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli;

Kuzatuv kengashi yig'ilishini chaqirishni talab qilishga va uning kun tartibiga masalalar kiritishga, foydani taqsimlash, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilgunga qadar o'zgartirish huquqi bilan boshqaruv va nazorat organlari a'zoliciga nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega.

75. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi bilan, shuningdek talab taqdim etilgan sanada bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

Markaziy bank bank Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishni, aksiyadorlar Markaziy bank tomonidan belgilangan masalalarni, shu jumladan bank kapitalini bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlay oladigan miqdorgacha ko'paytirish masalasini ko'rib chiqishni talab qilish xuquqiga ega.

76. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi shaxsan aksiyador tomonidan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyador Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

77. Aksiyadorning vakili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil

qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi.

78. Agar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytdan, bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'piga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bulsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

79. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi yoki masofadan turib axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda.

Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashi tomonidan chaqirilmagan hollar bundan mustasno. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ishtirok etgan shaxsga, o'zi tomonidan to'ldirilgan byulletendan, o'z hisobidan nusxa olishiga ruxsat beriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berilganda ovoz berish byulletenlaridan foydalanilmaydi. Bunda ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorning qonuniyligi aksiyadorni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatga olishda foydalaniladigan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

80. Kuzatuv kengashi a'zosini saylash to'g'risidagi masala yuzasidan ovoz berish o'tkazilgan taqdirda, ovoz berish byulletenida nomzod to'g'risidagi ma'lumotlar, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi lozim.

81. Sanoq komissiyasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kvorum bor yoki yo'qligini aniqlaydi, umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, ovoz berish byulletenlarini bankning arxiviga topshiradi.

82. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

83. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish maqsadida bankda ularning orasidan Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar bankka Kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida xozir bo'lgan va Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashiga nomzodlari

saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga bank Boshqaruvi raisi, Boshqaruv a'zolari, shuningdek Kuzatuv kengashiga va bank Taftishchisi etib saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish; qonunchilik hujjatlariga va bank Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning mikdor tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rt dan uch qismi hozir bo'lganda vakolatlidir.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi 3 (uch) kishidan kam bo'lmagan tarkibda saylanadi.

Minoritar aksiyadorlarning ko'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi ushbu qo'mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining raisi Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolat doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha bankning hujjatlaridan foydalanish huquqiga ega.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi bankning xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas, shuningdek minoritar aksiyadorlar tijorat va bank sirini qo'llash orqali asossiz ravishda xujatlar va maxfiy axborotlarni so'rash bilan bank boshqaruv organlarining faoliyatiga to'sqinlik qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyatiga Kuzatuv kengashining yoki bank Boshqaruvining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Kuzatuv kengashi

84. Bankning Kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.

85. Kuzatuv kengashi bankni samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan bank boshqaruvi a'zolari o'rtasida vakolatlarining hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta'minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

86. Kuzatuv kengashi a'zolari bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko'maklashishi hamda o'z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog'ida bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta'minlashi kerak.

87. Kuzatuv kengashi bank aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini ximoya qiladi va bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va ushbu Ustav bilan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

88. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

88.1. bankni strategik boshqarishda aksiyadorlar, jumladan, minoritar aksiyadorlar rolini oshirish, halqaro tajriba asosida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish,

investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish asosida bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

88.2. aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonun xujjatlarida va ushbu Ustavda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno;

88.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishning kun tartibini tayyorlash, shuningdek kun tartibidagi masalalar bo'yicha kerakli ma'lumotlarni taqdim qilish;

88.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqti va joyini belgilash;

88.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

88.6. bankni qayta tashkil qilish va tugatish, bank Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yoki yangi taxrirdagi bank Ustavini tasdiqlash, bankning yillik hisoboti, foyda va zararlari taqsimlanishini tasdiqlash, auditorlik tekshiruvi o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash va u bilan shartnoma tuzish yoki shartnomani bekor qilish bundan mustasno), to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqish uchun Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritish;

88.7. mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

88.8. bankning siyosatlari va yillik biznes-rejasini tasdiqlash, bunda bankning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi bankning Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlanishi lozim;

88.9. bank Boshqaruvi raisini lavozimiga tayinlash, uning vakolat muddatini uzaytirish yoki muddatidan oldin tugatish va keyinchalik bu masalani tasdiqlash uchun Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritish. Qonunchilikda va bank ichki qoidalarida belgilangan tartibda, bank Boshqaruvi raisini tayinlash to'g'risidagi qaror, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinishi mumkin;

88.10. bank Boshqaruvi a'zolarini lavozimiga saylash (tayinlash) va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

88.11. faqatgina bank Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan audit qo'mitasini, ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

88.12. Axborot texnologiyalari qo'mitasini (IT-qo'mitasi) va bank xatarlarini nazorat qilish qo'mitasini tashkil etish;

88.13. bankning Taftishchisiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

88.14. dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

88.15. bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

88.16. bankning filiallarini tashkil qilish va vakolatxonalarini ochish;

88.17. sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish;

88.18. balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulkni sotib olish yoki sotish xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi bir ovozdan qaror qabul qilish. Agarda yirik bitim tuzish to'g'risida Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qaror qabul qilishga erishilmasa, Kuzatuv kengashining qarori bilan yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilish uchun kiritilishi mumkin;

88.19. bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun xujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

88.20. korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

88.21. bank bilan aloqador bo'lgan (affillangan) shaxslar bilan bitim tuzish to'g'risida qarorlarni qabul qilish, bunday bitim tuzish to'g'risidagi qaror amaldagi qonunchilikka va ushbu Ustavga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan hollar bundan mustasno;

88.22. bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, jamg'arma va depozit sertifikatlarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

88.23. aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq belgilash;

88.24. bank Boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash;

88.25. bankning tarkibiy tuzilmalari va filiallari faoliyat tartibini belgilovchi ichki qoidalarni tasdiqlash, qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va bank Boshqaruvi vakolatiga taalluqli bo'lgan ichki qoidalarni qabul qilish (tasdiqlash) bundan mustasno;

88.26. bank Boshqaruvi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va bank Boshqaruvi yoki uning topshirig'i bo'yicha mas'ul shaxslardan Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish. Kuzatuv kengashi a'zolari olingan hujjatlardan fakat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

88.27. Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalarini tashkil qilish va ular to'g'risidagi nizomlar, shuningdek ichki audit va ichki nazorat xizmati nizomlarini tasdiqlash;

88.28. barcha aksiyadorlarga oshkor etgan holda, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi belgilagan va joriy yil uchun tasdiqlangan biznes-reja doirasida, xayr-exson, xomiylik va beg'araz yordam ko'rsatish shartlari to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish. Bunday holatda xayr-exson, xomiylik yoki beg'araz yordami miqdorining chegarasi har yili aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi;

88.29. bankda vujudga keladigan o'zaro qarashlar kelishmovchiliklari (bank va (yoki) mijoz uchun kelgusida noxush holatga olib kelishi mumkin bo'lgan bankning mulkiy va boshqa manfaatlarida bank tarkibiy tuzilmalari, uning xodimlari, mijozlari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni) oldini olish va tartibga solish;

88.30. uchinchi shaxslar tomonidan bank faoliyati to'g'risidagi ekspert hisobotlarini bank veb sayti yoki "Internet" axborot telekommunikatsion tarmog'ida joylashtirish uchun birlamchi rozilikni berish;

88.31. bankning qo'shimcha aksiyalarini chiqarish yuli bilan ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek, bank ustaviga bankning ustav kapitalini ko'paytirish hamda bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

88.32. bank tomonidan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

88.33. qonun hujjatlari, ushbu Ustav va Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom va bankning boshqa ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal qilish bank Boshqaruviga o'tkazilishi mumkin emas.

89. Kuzatuv kengashi majburiyatlari:

o'z vakolatlaridan bank aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab ish tutish;

bankka malakali rahbarlikni ta'minlash;

bank Boshqaruvi bilan maslaxatlashgan holda bankning uzoq va qisqa muddatli biznes-rejalarini tasdiqlash;

bankning amaliyot faoliyati, kreditlar berish va mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligi ustidan (omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlar manfaatlarini ximoya qilish maqsadida) joriy nazoratni amalga oshirish;

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarililigini lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;

bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;
bankning Boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;
bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda bankning faoliyati natijalari to'g'risida bank Boshqaruvining hisobotini eshitish;

bankning ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish, shuningdek bank ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida bank Boshqaruvi tomonidan bank strategiyalari va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o'tkazish;

bank Boshqaruvi a'zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o'rganish, muhokama qilish hamda ular bo'yicha bahslashish;

bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan bank boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rish;

bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to'g'risida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga hisobot taqdim etish;

yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta'minlash;

bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash;

bankning Ichki nazorat to'g'risidagi nizomi talablariga rioya qilinishini nazorat qilish.

90. Kuzatuv kengashi 9 kishidan iborat tarkibda saylanadi. Kuzatuv kengashi a'zolari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Kuzatuv Kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

Bank Boshqaruvi a'zolari va Boshqaruv raisi, shuningdek bankda mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchiligi bankka aloqador shaxslar bo'lmasligi kerak, bundan ularning Kuzatuv kengashidagi a'zoligi mustasno.

Kuzatuv kengashi a'zolari o'z mulohazalarining mustaqilligi bo'yicha talablarga rioya etishi kerak.

Quyidagi hollarda shaxs Kuzatuv kengashi a'zoligiga saylanishi mumkin emas yoki saylangan shaxs Kuzatuv kengashi a'zoligi huquqidan mahrum etiladi, agar:

shaxs ikki yoki undan ortiq bankning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lsa yoki a'zo bo'lish niyatida bo'lsa, bundan mazkur banklar bir bank guruhiga tegishli bo'lgan hollar mustasno;

shaxsning vakolatlari Markaziy bank talabiga ko'ra muddatidan ilgari tugatilgan bo'lsa.

Kuzatuv kengashi tarkibida, har yili qayta saylanishi mumkin bo'lgan bittadan kam bo'lmagan mustaqil a'zosi bo'lishi kerak.

Quyidagi shaxslar, ya'ni:

oxirgi uch yil ichida bankda va (yoki) bankka affillangan shaxslarda ishlamagan;

bankning aksiyadori va (yoki) bankka affillangan shaxsni ta'sischi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lmagan;

bankning yirik mijozi va (yoki) bankning yirik yetkazib beruvchisi va (yoki) bankka affillangan shaxs bilan fuqaroviy-huquqiy munosabatda bo'lmagan. Bunda eng kam oylik ish haqining ikki ming barobari miqdorida bo'lgan amaldagi shartnomasi bo'lgan shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi a'zosi vazifasi va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan shartnomalardan tashqari, bank va (yoki) bankka affillangan shaxslar bilan biron-bir kelishuvga ega bo'lmagan;

bankning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi yoki davlat korxonasi xodimi bo'lmagan shaxslar Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi deb e'tirof etiladi.

91. Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga xakli.

Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

92. Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan Kuzatuv kengashi tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

93. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarida bayonnoma yuritilishini tashkil etadi hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi, bank nomidan Boshqaruv raisini yollash to'g'risidagi mehnat shartnomasini tuzadi.

Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

94. Kuzatuv kengashining yig'ilishi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zosining, bank Boshqaruvi a'zosining, bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalar egasi bo'lgan bank aksiyadorlarining talabiga, ichki audit xizmati rahbari, tashqi auditorining talabiga ko'ra, shuningdek qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa shaxslar talabiga ko'ra chaqiriladi.

95. Kuzatuv kengashi har oy kamida bir marta chaqiriladi.

96. Kuzatuv kengashining yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 foizidan kam bo'lmashligi kerak.

Kuzatuv kengashi a'zolarining soni ushbu Ustavda kuzda tutilgan miqdorning 75 foizidan kam bo'lgan taqdirda, Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek bank Boshqaruvi raisning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

97. Kuzatuv kengashining yig'ilishda qarorlar yig'ilishda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Ustavning 88.18, 88.21, 88.31 va 88.32 bandlaridagi masalalar yuzasidan qaror qabul qilish hollari bundan mustasno, bu masalalar yuzasidan qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak. Agarda ko'rsatilgan masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qaror qabul qilish imkoni bo'lmasa, Kuzatuv kengashi ushbu masalalarni bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga kiritadi.

Kuzatuv kengashi qarorlarini qabul qilishda ovozlar teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi raisi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega bo'ladi.

Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishga yo'l qo'yilmaydi.

98. Kuzatuv kengashining yig'ilishida bayonnoma yuritiladi, u yig'ilish o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi va tasdiqlanadi.

Kuzatuv kengashi yig'ilishining bayonnomasi yig'ilishda ishtirok etayotgan, yig'ilish bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'lgan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi.

Kuzatuv kengashining qarorlari sirtidan ovoz berish yo'li bilan (surov yo'li bilan) Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

Kuzatuv kengashi yig'ilishining bayonnomasi imzolangan kuni bank Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot bank Boshqaruviga Kuzatuv

kengashining yig'ilishi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

Bank Boshqaruvi

99. Bank boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo'lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to'liq zimmasiga oladi. Boshqaruvga rais rahbarlik qiladi.

Bank Boshqaruvi qonun hujjatlari va bank Ustaviga muvofiq, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishga haqli emas.

Bank Boshqaruvi Kuzatuv Kengashi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordir.

100. Bank Boshqaruvi 9 (to'qqiz) kishilik tarkibdan iboratdir. Bank Boshqaruvi tarkibiga rais, uning o'rinbosarlari va bank Kuzatuv kengashining qaroriga asosan bankning muhim ahamiyatga ega bo'lgan xodimlari, shuningdek boshqa mustaqil bo'limlarning rahbarlari kiritilishi mumkin.

101. Bank Boshqaruvi raisi lavozimga Kuzatuv kengashining qarori bilan uch yil muddatga tayinlanadi va keyinchalik Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdig'iga kiritiladi. Bank Boshqaruvi raisining huquq va majburiyatlari u bilan uch yil muddatga tuziladigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi.

Bank Boshqaruvi raisi tayinlash to'g'risidagi qaror, yuqori malakali xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinishi mumkin.

Bank Boshqaruvi a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan uch yil muddatga tayinlanadi. Boshqaruv a'zolarining huquq va majburiyatlari ular bilan uch yil muddatga tuziladigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi.

102. Bank Boshqaruvining vakolatiga O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, ushbu Ustav va bankning boshqa ichki hujjatlariga asosan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalardan tashqari, bank faoliyatiga kundalik rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi.

Bank Boshqaruvi:

102.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi;

102.2. bankning tarkibiy tuzilmalari ishini muvofiqlashtiradi, halkaro tajribani chuqur taxlil qilish asosida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etadi, investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi;

bankka xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratadi, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosida boshqaruv xodimlarini tayyorlash va ularning kasb darajasini oshirishni tashkil qiladi, shuningdek bankning rahbarlik lavozimlariga chet ellik yuqori malakali menejerlarni jalb qiladi;

102.3. bank Ichki nazorat va Ichki audit xizmatlari, Risk-menedjmenti departamenti hamda Komplaens-nazorat boshqarmasi to'g'risidagi nizomlar va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan boshqa ichki qoidalaridan tashqari bank tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizom, tartib, qoidalarni tasdiqlaydi;

102.4. balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining besh foizidan o'n besh foizigachani tashkil etuvchi mol-mulkni sotib olish yoki sotish xususida bitim tuzish to'g'risida qaror kabul qiladi;

102.5. O'zbekiston Respublikasi hududida bank xizmatlari markazlarini tashkil qiladi;

102.6. bank Boshqaruvi huzuridagi qo'mitalarni tashkil etadi va ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

102.7. bankning kundalik faoliyatidagi muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

102.8. bank ichki auditi xizmatining tekshiruv natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va qonun buzilishlarni har chorakda ko'rib chiqadi va ularni bartaraf qilish choralari ko'radi;

102.9. tashqi audit tekshiruv natijalari va Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan inspeksiya (tekshiruv) hisobotlarini batafsil tahlil qiladi;

102.10. bankni boshqarish uchun siyosatlar, jumladan kredit, investitsiya, emissiya, bank likvidligini boshqarish siyosatlarini ishlab chiqish bo'yicha choralarni ko'radi;

102.11. qonun hujjatlari, ushbu Ustav, bank Boshqaruvi to'g'risidagi nizom va bankning boshqa ichki qoidalarida nazarda tutilgan bank Boshqaruvi vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal qiladi.

103. Bank Boshqaruvi:

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirishi;

bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlashi;

bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi;

bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga va kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etishi;

ushbu Ustavida hamda Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

104. Bank Boshqaruvi yig'ilishi, agar unda bank Boshqaruvining kamida 7 (yettita) a'zosi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Qarorlar bank Boshqaruvi yig'ilishida ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda bank Boshqaruvi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Bank Boshqaruvi a'zosi bank Boshqaruvi qaroriga qo'shilmagan hollarda Kuzatuv kengashiga o'z fikri to'g'risida xabar berishi mumkin.

105. Bank Boshqaruvi yig'ilishida bayonnoma yuritiladi. Bank Boshqaruvi yig'ilishining bayonnomasi Kuzatuv kengashi va bank Taftishchisining talabi bo'yicha ularga taqdim qilinadi.

Bank Boshqaruvi yig'ilishini o'tkazilishini, bank nomidan barcha hujjatlarga va bank Boshqaruvi yig'ilishi bayonnomasiga imzo chekuvchi bank Boshqaruvi raisi tashkil qiladi, o'z vakolat doirasida bank Boshqaruvi qabul qilgan qarorlarga muvofiq bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi.

106. Kuzatuv kengashi bank Boshqaruvi raisi, bank Boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, shuningdek ushbu Ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli bankka zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan oldin tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

107. Kuzatuv kengashi tomonidan bank Boshqaruvi raisining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, bank Boshqaruvi raisining vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi masala o'sha yig'ilishning o'zida hal etilishi yoxud bank Boshqaruvining raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda Aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin.

108. Bank Boshqaruvi raisining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan Kuzatuv kengashi bank Boshqaruvi raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek bank Boshqaruvi raisi to'g'risidagi masalani hal etish uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqiradi.

109. Bank Boshqaruvi raisi:

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining qarorlari ijrosini ta'minlaydi;

bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu Ustavda belgilangan doiralarda bankning mol-mulk va pul mablag'larini tasarruf etadi;

qoidalar, ish tartibi va boshqa ichki hujjatlarini tasdiqlaydi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadigan ichki hujjatlar bundan mustasno;

bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan ichki hujjatlarni imzolaydi;

bank, bank xizmatlari markazlari va respublika tashqarisida ochiladigan filial va vakolatxonalarning shtat jadvallari tasdiqlaydi;

ishonchnomalar beradi;

banklarda bankning vakillik, valyuta, hisob-raqamlari va boshqa xisob-raqamlarini ochadi;

buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qiladi;

balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining besh foizicha bo'lgan mol-mulkni, ko'chmas mulk va avtotransport vositalaridan tashqari, sotib olish yoki sotish xususida bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

xodimlarni, shu jumladan bo'linma, bank xizmatlari markazlari, filial va vakolatxonalar rahbarlarini ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;

bank xodimlarini qonun hujjatlari, ushbu Ustav, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va bank Kengashi tomonidan belgilangan tartibda rag'batlantiradi, shuningdek ularni intizomiy va moddiy javobgarlikka tortadi;

bank xodimlarining barchasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va bank Taftishchisi faoliyatini tashkiliy texnikaviy ta'minlashni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq bank faoliyatining boshqa kundalik masalalarini hal qiladi.

X. BANKNING HISOBI VA HISOBOTI

110. Bank buxgalteriya hisobini Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqilgan ichki hisob-kitob siyosatiga muvofiq tashkil etadi va yuritadi.

111. Bank moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini qo'llashi mumkin.

112. Bankdagi buxgalteriya hisobi:

boshqaruvga, moliyaga, soliqqa va nazoratga oid hisobotning hamda boshqa hisobotlarning ishonchliligini, ularda bankning haqiqiy moliyaviy holati va faoliyati natijalari aks ettirilishini;

bank aktivlarini va yuzaga keluvchi tavakkalchiliklarni boshqarish xavfsizligini;

bank aksiyadorlari va Kuzatuv kengashi tomonidan bankning moliyaviy ahvolini va uning mansabdor shaxslarining ishini nazorat qilish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

113. Bankda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank Boshqaruvining zimmasida bo'ladi.

114. Bank Markaziy bankka moliyaviy va nazorat hisobotlarini, shuningdek o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan shakllarda, tartibda va muddatlarda tuzadi hamda Markaziy bankka taqdim etadi. Bank Markaziy bankning talabiga ko'ra konsolidatsiyalashgan, davriy, shuningdek bir martalik hisobotlarni taqdim etadi.

Bank Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobotlarning va boshqa ma'lumotlarning yaxlitligi hamda ishonchliligi uchun javobgardir.

Bank qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi hisobotlarni ham taqdim etadi.

115. Bankning moliyaviy hisobotlarida ko'rsatilgan va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar xisob-varag'idagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari bank yoki uning aksiyadorlari

bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti (keyingi matnlarda - mustaqil auditorlik tashkiloti) tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

116. Bankning yillik hisoboti Aksiyadorlarning yillik umumiy yigilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 30 kun oldin Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

117. Bankning amaliyot yili 1-yanvarda boshlanadi va 31-dekabrda tugaydi.

118. Bank moliyaviy hisobotlarni, ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini auditorlik tashkiloti tasdiqlaganidan keyin Markaziy bank tomonidan belgilanadigan shaklda e'lon qiladi.

119. Bank Auditning xalqaro standartlari asosida tashqi auditdan o'tkazilganidan so'ng Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tuzilgan yillik moliyaviy hisobotlarini Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi utkazilishidan ikki hafta oldin chop etishi shart.

120. Bank o'z mablag'lariga, kapitalga doir talablarning bajarilishiga, likvidlikka, tavakkalchiliklarning qiymatiga va boshqa muhim ko'rsatkichlarga (normativlarga) doir axborotni oshkor etishi kerak.

XI. BANKNING MOLIIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

121. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish Aksiyadorlar umumiy yigilishining, Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik kiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

122. Ichki audit xizmati bank Boshqaruvi, bank xizmatlari markazlari, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, bank Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek bankni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali ularning ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

123. Ichki audit xizmati bank Kuzatuv kengashi oldida hisobdordir.

124. Bank auditi mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan har yili o'tkaziladi. Auditorlik tashkiloti bank bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik hulosasini taqdim etadi.

125. Bankning auditorlik tekshiruv Markaziy bankning talabiga ko'ra umuman bankning faoliyati bo'yicha ham, shuningdek bank faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin.

126. Bank auditorlik tekshiruvining maqsadi bankning moliyaviy axboroti hamda boshqa moliyaviy ma'lumotlari to'g'riligini va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga hamda moliyaviy hisobotlarga oid xalqaro standartlarga muvofiqqligini auditorlik tashkiloti tomonidan aniqlashdan iborat.

127. Bankning yillik moliyaviy hisoboti to'g'risidagi auditorlik hulosasi qonunda nazarda tutilganidan tashqari, auditorlik tashkiloti tomonidan:

bank tomonidan hisobot sanasidagi holatga ko'ra prudensial normativlarning bajarilishini;

bankning ichki nazorati va tavakkalchiliklarini boshqarish tizimlarining tashkil etilishi Markaziy bank tomonidan qo'yilgan talablarga muvofiqqligini tekshirish natijalarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

128. Auditorlik tashkiloti bankning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborotlar haqida noto'g'ri hulosani o'z ichiga olgan auditorlik hulosasi tuzganlik oqibatida yetkazilgan zarar uchun bank oldida javobgar bo'ladi.

XII. BANKNI QAYTA TASHKIL QILISH VA TUGATISH

129. Bankni qayta tashkil qilish amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan, Markaziy bank ruxsati bilan, yoki Markaziy bank talabi bilan amalga oshiriladi.

130. Bankni qayta tashkil etish raqobat to'g'risidagi qonunchilikning talablari hisobga olingan holda, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida Markaziy bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish ixtiyoriy yoki majburiy (Markaziy bank tomonidan litsenziya chaqirib olinganda) shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish uchun:

bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qarori;

Markaziy bank boshqaruvining bankni majburiy tugatish haqidagi qarori asos bo'ladi.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish, shu jumladan ixtiyoriy shaklda tugatish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

131. Ixtiyoriy tugatish bank aksiyadorlari (ishtirokchilari) umumiy yig'ilishining ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qarori asosida, kreditorlar va omonatchilarning talablarini qanoatlantirish imkoniyati mavjud bo'lganda hamda Markaziy bankning ruxsati olinganda amalga oshiriladi.

Bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar ovozlarining to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bank Markaziy bankka aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida darhol yozma shaklda xabar berishi shart.

132. Bank Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish to'g'risidagi qarori asosida majburiy tugatiladi.

Bankni majburiy tugatish chog'ida tugatish komissiyasi Markaziy bank tomonidan tayinlanadi.

Markaziy bank tugatish komissiyasi tarkibiga Markaziy bank xodimlarini kiritishga haqli.

133. Bank tugatilayotganda barcha kreditor va omonatchilar talablari inobatga olinadi. Kreditorlar va omonatchilar bilan hisob-kitob tugagandan keyin, bankning qolgan mol-mulki tugatuvchi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Imtiyozli aksiyalarni tugatish qiymati ularning nominal qiymatining 100 foiziga teng.

134. Bankni tugatish Banklarning davlat reyestriga tegishli yozuv kiritilgan kundan e'tiboran tamomlangan deb va bank tugatilgan deb hisoblanadi.

XIII. BANK USTAVIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

135. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan bank Ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

136. Bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bank Ustavini yangi tahrirda qabul qilish bankni ro'yxatga olish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

137. Bank Ustaviga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish hamda bank Ustavini yangi tahrirda qabul qilish ular Markaziy bank tomonidan ro'yxatga olingan sanadan boshlab kuchga kiradi. Ro'yxatga olingan bank ustaviga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

"ANOR BANK" AJ
Boshqaruvi Raisi



Sh.S. Akramov

Tikilgan va raqamlangan

38 (O'ltiz bit)

vara qdan iborat

31-mart

2026-yil

Imzo

